

BUXORO-QADIM MADANIYAT, MA'RIFAT ILM-FAN O'CHOG'I

Habibova Sabina Jamshid qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tuman

56-maktab Geografiya fani o'qituvchisi

Habibovas171@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qadimiy va navqiron Buxoro viloyatining qadim madaniyat, ma'rifat ilm-fan o'chog'I mavzusida keng yoritilgan

Kalit so'z: madaniyat, ma'rifat, ilm-fan, qadimiy Buxoro viloyati,

KIRISH QISM

O'zbekiston Respublikasining qadimiy shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. O'zbekistonning ilk poytaxti. Buyuk ipak yo'lida yirik tijorat markazlaridan bo'lgan. O'zbekistonning janubiy-g'arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan. Toshkentdan 616 km. Buxoro 2 ta shahar rayoni (Fayzulla Xo'jayev va To'qimachilik)ga bo'lingan. Aholisi 290 000 (2019). Aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil etadi. Oliy ta'lim muassasalari: Buxoro davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya institute. Hozirgi kunda Buxoro shahrida 30 dan ortiq yirik sanoat korxonasi mavjud. Viloyat sanoat korxonalari yalpi mahsulotining yarmidan ko'prog'i Buxoroda ishlab chiqariladi. Korxonalarda asosan mahalliy xom ashyo qayta ishlanadi. Ayrim korxonalar gaz va neft sanoati hamda qishloq xo'jaligiga xizmat qilishga ixtisoslashgan. Buxoro to'qimachilik kombinati („Buxoroteks“), qorako'l zavodi, zardo'zlik, pillakashlik fabrikalari, paxta, yog'ekstraksiya, vino, g'isht, remontmexanika zavodlari, un, go'sht, uysozlik kombinalari, poyabzal, tikuvchilik fabrikalari hamda hunarmandchilik tarmoqlari ishlab turibdi. Shaharda 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qurilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatadi: „BuxTel“ (Isroil) mayonez, „OmegaSitora“ (Gretsiya) mo'yna buyumlari, „GufikAvitsenna“ (Xindiston) dori-darmon, „Marmar“ (AQSH) qurilish materiallari ishlab chiqaradi. 1996-yilda Buxoroda Koreya Respublikasida ishlab chiqarilgan telefon stansiyalari o'rnatildi. Buxoroda O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining filiali, bog'dorchilik, niholchilik tajriba xujaligi va „Sohibkor“ xo'jaligi joylashgan.

Buxoro yirik ilm-ma'naviyat, ma'rifat markazlaridan. 1996-yil martdan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Samarqand bo'limining Buxoro mintaqaviy markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 1997-yilda 3 oliy o'quv yurti (davlat universiteti, oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, tibbiyot instituti), 5

kollej, 3 akademik litsey, tarix faniga ixtisoslashgan maktab, 47 umumiy ta’lim maktabi, 89 maktabgacha tarbiya muassasalari, 28 ommaviy kutubxona, Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey ko‘rixonasi, 2 teatr mavjud.

„Buxoro haftanomasi“ gaz. chiqadi (adadi 2000). 1997-yilning Oktyabrda Buxoro shahrining 2500-yilligi O‘zbekistonda keng nishonlandi. 50 dan ortiq tarixiy-me’moriy obidalar ta’mirlandi, yangi istirohat bog‘lari, xiyobonlar barpo qilindi. Buxoro zaminida mashhur, donishmand allomalar voyaga yetgan, o‘qib ijod etgan. Abu Hafsi Kabir Buxoriy (767— 832), Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Narshaxiy, Daqiqiy, Rudakiy, Bal’amiy, Abduxolik G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Sayfiddin Boharziy, Mushfiqiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Turdi, Ahmad Donish, Fitrat, Muso Saidjonov, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Ibrohim Mo‘minov, Jalol Ikromiy shular jumlasidandir.

Buxorodagi etti pir — Abduxoliq G‘ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me’moriy majmualari nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanadi. Manbalarda etti piri komil payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallamdan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari sifatida e’tirof etilgan. Ular ko‘ngilni nafsu hirsdan poklash, halol mehnat qilib umr kechirish, Allohni jon-dildan sevish g‘oyalari ni targ‘ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga dinu diyonat, odo-axloq, ezgu so‘z va amaldan saboq berib kelmoqda. Ta’kidlash kerakki, Buxoro ahli ota-bobolarining madaniyati va san’atini saqlash, an’analarini boyitishda ham peshqadamlik qilmoqda. Ming yil avval Toqi zargaron yoki Toqi telpakfurushonda qanday savdo qilingan bo‘lsa, bugun ham sayyohlar va mehmonlar o‘zlariga yoqqan narsalarni timlar tagida joylashgan bozordan xarid qiladilar. Zargarlar, zardo‘zi ustalari, gilamdo‘zlar, kulollar ham ming yil ilgari ishlab chiqarilgan nafis ashyolarni hamon didingizga mos qilib ishlab chiqarmoqdalar. Buxoro 2020 yilni Islom olami madaniyati poytaxti maqomida kutib oldi.

XULOSA

Buxoroning yangi maqomi bilan faxrlanish barobarida bu erga keladigan mehmonlarni ochiq yuz hamda ilm-fan, tafakkur va bunyodkorlikka yo‘g‘rilgan ulkan salohiyat bilan qarshi olishga tayyormiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://yuz.uz/uz/news/buxoro--qadim-madaniyat-va-ilm-fan-ochogi>

2. Yangi O`zbekiston gazetasi 2020 3-oktabr
3. Abduraxmoni Tali, Istoriya Abulfeyzxana, T., 1959;
4. Axmad Danish, Istoriya Mangitskoy dinastii, Buxoro shahri. Dushanbe, 1967;
5. Fazlallax ibn Ruz bixan Isfaxani, Mexmannameyi Buxapa, M., 1976;
6. Hasanxoja Nisoriy, Muzakkiri ahbob, T., 1993;
7. Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma [1 —2 j.lar], T., 1999—2000;
8. Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi — uchinchi ming yillikka (1997-yil 18— 20-oktabr, Buxoro-Xiva), T., 1997.
9. Istoriya at-Tabari, T., 1987; Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1966;

**"Innovations in Science and
Technologies"**